

**‘FAROVON OILA’ DASTURI: O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY HIMOYA VA
SHAXSIY RIVOJLANISHNING YANGI IMKONIYATLARI****O. A. Qurbanova**

Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumani

“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan tashkil etilgan “Farovon oila treninglari”ning ahamiyati, maqsadi va natijalari yoritilgan. Treninglarning fuqarolarga psixologik, ijtimoiy va moliyaviy barqarorlikka erishishda qanday yordam berayotgani, Termiz tumanidagi tajriba misolida bayon etiladi. Trener sifatida muallif o‘z kuzatuvlarini, dastur mazmunining tushunarliqligi, amaliy samaradorligi va fuqarolar orasida katta qiziqish uyg‘otganini ta’kidlaydi. Shuningdek, Prezident farmoni asosida dasturning huquqiy jihatdan mustahkamlangani va kelgusida yanada kengaytirilishi zarurligi haqida takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: farovon oila, ijtimoiy himoya, psixologik trening, shaxsiy rivojlanish, moliyaviy barqarorlik, trener tajribasi, kam ta'minlangan oilalar, prezident farmoni, ijtimoiy dastur

Inson qaysi yoshda bo'lmasin, unda hamisha rivojlanish va yuksalishga bo'lgan ehtiyoj birlamchi masalalardan biri bo'lib qolaveradi. Faqat hayotning turli tashvishlari va yoki ma'lum sabablarga ko'ra bu ehtiyojlar o'zini anglamaslik, o'zini tinglamaslik bilan yuzaga chiqmay qoladi. Shunday vaqtlarda kimningdur ishonchi hamda qo'llab-quvvatlovi birinchi qadamni qo'yish uchun yetarli bo'ladi.



O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy himoya milliy Agentligi tomonidan tashkil etilgan “Farovon oila trening” lari aynan shu maqsadni ko'zlaydi. Bu dunyoda iste'dodsiz inson bo'lmaydi, har bir shaxsning o'z kuchli tomonlari va orttirgan hayotiy tajribalari mavjud. Men psixolog va mazkur trening treneri sifatida shuni ishonch bilan ayta olamanki, mazkur treninglar o'z maqsadi va mohiyatiga ko'ra agentlik bildirgan ishonchni oqlay oldi. Birgina Termiz tumani misolida oladigan bo'lsam, 4 ta mahallada tashkil etilgan treninglarda fuqarolarning katta qiziqish bilan ishtirok etganlariga guvoh bo'ldim. Fuqarolarning shaxsiy o'sish, moliyaviy barqarorlikka erishish uchun qilayotgan harakatlari, psixologik bilimlar olishga bo'lgan qiziqishlarini e'tirof etish joiz. Mazkur treninglar Respublikaning turli hududlarida bir vaqtda tashkil etilganligi hamkasblarimiz bilan hamkorlikda ishlashni, o'zaro tajribalar almashish imkonini berdi. Fuqarolar tomonidan treninglarning iliq kutib olinganligi, davomli tarzda olib borishni taklif qilishganliklari mutaxassislariga yanda kuch - quvvat bag'ishladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil, 8-maydagi “Kambag'al oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab –quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida” PF-84 sonli farmoni, 2-ilovasining 9-bandida “Farovon oila” dasturi doirasida hududlarda o'tkazilayotgan seminar – treninglarni samarali tashkil etishning belgilab qo'yilganligi ushbu dasturdan kutilayotgan katta natija va bildirilgan ishonch namunasidir. Ijtimoiy davlatga aylanib borayotgan Yangi O'zbekiston uchun va ijtimoiy himoyaga muxtoj shaxslar uchun ushbu treninglar muhim dasturi amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Treninglar davomida dasturga amal qilgan holda fuqarolar bilan ishlar ekanman, har bir mashg'ulot, topshiriq yoki superviziya maqsadli ekanligini his etdim, mazkur dastur trener uchun ham, fuqaro uchun ham o'ta sodda tilda, tushunarli tarzda ifodalangan. Fuqarolarga o'z imkoniyatlarini baholay olish, yaqin keljakni tasavvur qilish, imkoniyatlaridan va salohiyatidan kelib chiqqan xolda o'zini real baholay olish imkonini bera oldi. Nafaqat o'z kasbiy ko'nikmalarini tiklashga, balki bugungi kunga qadar e'tibor bermay kelayotgan o'zida mavjud yutuqli jihatlarini ham anglashlariga erishildi.



Ushbu dastur kam ta’minlangan va moliyaviy qiyinchilikka tushib qolgan oilalar uchun mo’ljallanganligini va koz’langan maqsadga qaysidur ma’noda erisha olingan deb hisoblasak, bunday dasturlarni har bir toifadagi oilalar va fuqarolar uchun ishlab chiqilishini taklif etgan bo’lar edim.

Dastur mualliflariga va buni amalga oshirilishida o’z malakasini hamda fidoyiligini ayamagan barcha hamkasblaringma omad tilab,davomli yutuqlar tilayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 2025-yil 8-may, PF–84-son. “Kambag‘al oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”. [2-ilova, 9-band].
2. O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy himoya milliy agentligi. “Farovon oila” dasturi va trening materiallari. – Toshkent, 2024.
3. Karimova, M. (2021). Psixologik maslahat va trening metodlari. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi nashriyoti.